



UDK:

Abdinazar NURMATOV,

Fan nomzodi, katta ilmiy xodim, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent,

Ijtimoiy fanlar bo'limi, O'zMU, Yurisprudensiya, 3-kurs, talabasi.

E-mail: abdinazarnoormatov@nur.uz, ORSID.

THE ISSUE OF COMPENSATING FOR THE PROPERTY DAMAGE CAUSED BY THE CRIME. PART 1 (ON THE EXAMPLE OF RESTORING THE ACTIVITY OF XISISIU KOGHOPA ON THE BASIS OF MULLIF'S ARTIFICIAL INTELLIGENCE PROGRAM)

Annotation

In this article, digital propaganda is an analytical statement on the example of restoring the activities of one of the capabilities of technology, namely, "Qurbanoy Mushkent" khisisiu koghopa on the basis of the author's artificial intelligence program. Episode **Key words:** Charter, preliminary patent, artificial intelligence, program, serious, xisisiu kaghopa, district governor, intellectual property, legal entity, appeal, koggirsua, criminal law.

ВОПРОС О ВОЗМЕЩЕНИИ ИМУЩЕСТВЕННОГО УЩЕРБА, ПРИЧИНЕННОГО ПРЕСТУПЛЕНИЕМ. ЧАСТЬ 1 (НА ПРИМЕРЕ, ВОССТАНОВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧАСТНОГО ПРЕДПРИЯТИЯ НА ОСНОВЕ ПРОГРАММЫ АВТОРА ПО ИСКУССТВЕННОМУ ИНТЕЛЛЕКТУ)

Аннотация

В этой статье цифровая пропаганда представляет собой аналитическое изложение на примере восстановления деятельности одной из возможностей технологии, а именно "Курбаной Мушкент" частного предприятия на основе авторской программы по искусственному интеллекту. Эпизод 1.

Ключевые слова: Хартия, предварительный патент, искусственный интеллект, программа, серьезный, частная предприятия, губернатор округа, интеллектуальная собственность, юридическое лицо, апелляция, коррупция, уголовное право.

JINOYAT NATIJASIDA YETKAZILGAN MULKIY ZIYONNI QOPLASH MASALASI. 1-QISM (MULLIFNING SUN'IY INTELLEKT DASTURI ASOSIDA XUSUSIY KORXONA FAOLIYATINI TIKLASH MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli targ'ibot texnologiyaning imkoniyatlaridan biri, ya'ni, muallifning sun'iy intellekt dasturi asosida «Qurbanoy Mushkent» xususiy korxonada faoliyatini tiklash misolida tahliliy bayon etilgan. 1-qism.

Kalit so'zlar: Nizom, dastlabki patent, sun'iy intellekt, dastur, jiddiy, xususiy korxonada, tuman hokimi, intellektual mulk, yuridik shaxs, murojaat, korrupsiya, jinoyat huquqi.

Kirish. Qonun ustuvorligini ta'milash, hozirda va kelajakda dolzarb muammo bo'lib turibdi. Ayniqsa, Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida Qonuni va Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi Qonuninigi hayotdagi o'rni dolzarb bo'lib, ularning boshqa qonunlar bilan amaliy integratsiyasi nihoyatda muhimdir. Bu esa, ko'pdan-ko'p yuridik hujjatlar, dalillar-raqamlarga murojaat qilishga majbur qilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi Qonunining 4-moddasida, Murojaatlarni ko'rib chiqishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: qonuniylik; murojaatlarni o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqish; murojaatlarga nisbatan talablarning bir xilligi; jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi; murojaatlarni ko'rib chiqishda byurokratizm va sansalorlikka yo'l qo'yilmasligi; murojaatlarni ko'rib chiqishda davlat organlari, tashkilotlar va ular mansabdor shaxslari faoliyatining shaffofligi; 22-moddasida esa, Murojaatlarni berish muddatlari, qoida tariqasida, belgilanmaydi.., Shikoyat berishning uzrli sababga ko'ra o'tkazib yuborilgan muddati.., shikoyatni ko'rib chiquvchi davlat organi, tashkilot yoki ularning vakolat berilgan mansabdor shaxsi tomonidan tiklanadi – deyilgan bo'lsa; 38-moddasida, Murojaatlar to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik, belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi – deyilgan. Bu esa, Jinoyat kodeksining 144-moddasida,

Jismoniy shaxs (xususan, JABRLANUVCHI, ya'ni KORRUPSIYA QURBONI, aslida arizachi, shu damda, muallif) larning murojaatlarini ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, yozma shaklda javob yubormaslik, xuddi shuningdek jismoniy shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikni boshqacha tarzda buzish jismoniy shaxs (xususan, JABRLANUVCHI, ya'ni KORRUPSIYA QURBONI, aslida arizachi, shu damda, muallif) larning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, — bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi – deylanlariga zid (qarshi) hisoblanadi (xususan, "JIDDIY" so'zining lug'oviy ma'nosi borasida, "O'zbek tilining izohli lo'g'ati"ning "J" – harfi kitobining 82 betida, "JIDDIY" – so'zining izohi keltirilgan. JIDDIY [arabcha so'z – muhim, ahamiyatli; asosli] 1 Puxta o'ylab, chuqur mulohazalarga suyanib ish ko'radigan; mulohazali. 2 Muhim ahamiyatga ega bo'lgan, muhim. 3 O'y-fikrga cho'mgan, o'ychan, salobatli, sipo, vazmin (kishi qiyofasi, tashqi ko'rinish haqida). 4 Chin, rost, behazil; tayinli. 5 Yomon oqibatlariga olib borishi mumkin bo'lgan; yomon, xavfli. 6 O'ylanganidan murakkab, keskin, og'ir. 7 Astoydil, jon-jahd bilan, rostakamiga. 8 Yetarli asosga ega bo'lgan, asosli; muhim. 9 Alohida, mas'uliyat bilan. Xullas, "O'zbek tilining izohli lo'g'ati" idagi "JIDDIY" – so'zining izoh

berilganiga e'tiroz bo'ladigan bo'lsa, O'zR FA O'zbek tili va adabiyoti institutiga XAT bilan murojaat qilishingiz mumkinligiga JIDDIY e'tibor qaratishingiz) da; Yer Kodeksining 1-moddasida, "Yer to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab, ... Shuningdek bu sohada qonuniyligni mustahkamlashdan shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat" – deyilgan bo'is; Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida Qonunning 21-moddasida, "Davlat organlarining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yo'l qo'ygan xodimlari, shuningdek ularning rahbarlari qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi" – deyilgan; Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan ehtiyojlar uchun yyer uchastkalari berish, shuningdek obyektlarni qurishga ruxsatnomalar berish tartibini tubdan soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining (01.07.2018 yilda, hujjat o'z kuchini yo'qotgan) Qarori (keyinchalik, NIZOM) da va boshqalarda ushbu nizoli loyihaning dolzarbligi, shuningdek, zaruriyatiga oid ijobiy fikrlar mavjud, eng asosiysi: mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga tasischining ixtirolariga olingan dastlabki patentlari va ilmiy ishlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. 25.12.2014 yilda, Samarqand viloyati Narpay tumani hokimi, B.O.Yusupov: tuman yyer resurslari va davlat kadasteri bo'limi boshig'i, Z.Ibodullayevga, nafaqat Narpay tumanida balki, butun dunyoda dolzarb bo'lgan, Quyosh energiyasidan foydalanish uskunalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanishim mumkinligi to'g'risida "Domla (ya'ni, mullif) bilan, Quyosh energiyasidan foydalanish uskunalarini ishlab chiqarish sexi binolari qurish uchun jami 0,30 ga yyer maydoni ajratishga hujjat tayyorlang!" mazmunidagi topshiriqni bergan edi.

Z.Ibodullayev esa, shu kunning o'zida, "Domla (ya'ni, mullif), ushbu NIZOM [1] ga asosan, dastlab, xususiy korxonada tashkil qiling va hujjatlarni yig'ing" – degan edi. 03.01.2015 yilda Narpay tumani Kosagoron QFY "Tepa" MFY hududidan tashlandiq yyer maydonining ilovadagi sur'atlarini Z.Ibodullayevga ko'rsatdim, shundan so'ng, hujjat yig'ishlar jarayoni boshlanib ketdi va 26.02.2015 yilda "Qishloqqurilishloyiha" OAJ Institutining ilovadagi "ZAKLYUCHENIE № 02-15/29-113 ot 26 Fevralya 2015 goda, Soglasovat plani razmesheniya sleduyushix zemelnix uchastkov pri uslovii soblyudeniya norm, pravil, krasnix liniy ulits, linii zastroyki i soglasovaniya s zainteressovannimi organizatsiyami v ustanovlennom poryadke. 8. Punk torgovobitovogo obslujivaniya i sex po proizvodstvu solexnix batarey na territorii maxali Tepa SSG Kosagoron Narpayskogo rayona" – deb yozilgan rozilik XATi bilan nihoyasigi yyetdi.

Ammo, Narpay tumani hokimi, B.O.Yusupov o'zining so'zida turmadi.

Oqibatda, Narpay tumani hokimi, B.O.Yusupov 01.07.2016 yilda № 666-Q Qarori (kiyinchalik, nizoli qaror) bilan ushbu NIZOMga zid ravishda, ya'ni ADOLAT qilmasdan noqonuniy tarzda men (ya'ni, mullif) ga atalgan 0,30 ga yyer, "O'lmas Yusufbek RSJ" fermer xo'jaligiga tenis korti va sun'iy qoplamali futbol maydonchasi qurish uchun berib yuborilgan.

Mullifning fikricha, nizoli qaror 21+4=25 varaqdan iborat bo'lib, xususan 6 varag'i takrorlangan, ya'ni mazkur 6 varaq, nizoli qarorning hajmini ko'paytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, nizoli qarordagi, sanalar, ya'ni "01.07.2016 y." va boshqa sanalar, fotosuratlar, 1:500 masshtabli xarita, "Qishloqqurilishloyiha" MCHJ "KELISHILGAN" degan faktlarning mavjud emasligi, ya'ni yyetishmasligiga va

boshqalarga e'tiborli bo'lish zarur?! Shunda: nizoli qarorning qanchalik qalbakiligi ko'rinadi.

Ushbu, ya'ni noqonuniy tarzda, nizoli qarorni haqiqiy emas deb topish to'g'risida, ko'plab tashkilotlarga, buzilgan haq-huquqlarini tiklanishini so'rab ko'plab SHIKOYATlar yozgan, qonuniy, yani, ADOLATLI natija esa yo'q, oqibatda, hozirgacha xususiy korxonada "QURBONOY MUSHKENT" o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlayolmasdan turibdi.

Chunki, Samarqand viloyati, Narpay tumani, Kosagoron QFY, "Tepa" mahalladagi 0,3 ga yyer maydoni, «Qurbonoy Mushkent» X/Kga tegishli bo'lishi mumkinligi to'g'risida: Toshkent shahridagi "QISHLOQQURILISHLOYIHA" instituti (B.G.Shteynberg, imzo qo'ygan sana 26.02.2015 y.), Samarqand viloyati IIB YHXB YO'L NAZORATI BO'LIMI (X.Umarov, imzo qo'ygan sana 09.04.2015 y.) va boshqa 13 (O.Nazarov, Z.Ibodullayev, D.Doniyorov, M.Sohibov, T.Ashurov, A.Abdusaidov, A.Maxmanov (imzo qo'ygan sana 08.04.2015 y.), B.Jo'rayev (imzo qo'ygan sana 02.02.2015 y.), N.Botirov, B.Rustamov, M.Saidov, O.Haydarov (imzo qo'ygan sana 02.02.2015 y.), I.Muxammadiyev) mutasadi tashkilot rahbarlarining rozi bo'lishiga, ya'ni murosaga kelishganlariga o'zi (ya'ni, A.S.Nurmatov) har biriga, 3-4 martalab qatnab, guvoh bo'lganini yozgan!

Bu hali hammasi emas, NIZOMning 8-bandida, "Aholi punktining bosh rejasiz, ... aholi punktlari hududida yyer uchastkalari berish taqiqlanadi" – deyilgan.

Biroq, nizoli qarorda, esa, Aholi punktining bosh rejasi mavjud emas.

NIZOMning 13-bandida, esa, "Tuman arxitektura va qurilish bo'limi tomonidan obyektini qurish uchun yyer uchastkasini tanlash materiallari quyidagi tarkibda tayyorlanadi:

ko'rib chiqilayotgan hududning yyer uchastkasini joylashtirish plani (tegishli aholi punktining 1:2000 masshtabli navbatchi planidan (mavjud bo'lganda) yoki vaziyat aks ettirilgan 1:10000 masshtabli qishloq xo'jaligi xaritasidan nusxa);

Yer uchastkasini kamida ikki tomonidan o'rab turgan obyektlar bilan bog'liq holdagi (15 x 20 sm o'lcham) fotosurati" – deyilgan.

Ammo, nizoli qarorda, esa, yer uchastkasining kamida ikki tomonidan o'rab turgan obyektlar bilan bog'liq holdagi (15 x 20 sm o'lchamli) fotosurati mavjud emas.

NIZOMning 16-bandida, ta'kidlangandek, "Yer uchastkasini tanlash bo'yicha materiallar yetti kun mobaynida ... qishloq aholi punktlarida – "Qishloqqurilishloyiha" MCHJ bosh loyiha-qidiruv tashkiloti bilan kelishiladi" – deyilgan.

Ammo, nizoli qarorda, esa, "Qishloqqurilishloyiha" MCHJ bosh loyiha-qidiruv tashkiloti bilan kelishilgan emas.

NIZOMning 38-bandida, "Tuman arxitektura va qurilish bo'limi "Yergeodezkadaster" davlat qo'mitasining tuman yyer tuzish va ko'chmas mulk kadastri davlat korxonasi ishtirokida yyer uchastkasi chegaralarini quyidagi muddatlarda naturaga ko'chiradi:

boshqa aholi punktlarida – yyer uchastkasining topografik xaritasi ishlab chiqilgandan keyin" – deb ko'rsatilgan.

Biroq, nizoli qarorda, esa, yer uchastkasining topografik xaritasi ishlab chiqilgan emas.

NIZOMning 48-bandida, "Yer uchastkasini tanlash va ajratish bo'yicha materiallar ular belgilangan ro'yxatga muvofiq taqdim etilmagan taqdirda qaytarilishi mumkin.

Rad etish asoslangan bo'lishi yozma shaklda taqdim etilishi kerak – deyilgan.

Ammo, nizoli qarorda, esa, yer uchastkasini tanlash va ajratish bo'yicha materiallar ular belgilangan ro'yxatga

muvofiq taqdim etilmagan taqdirda qaytarilishi mumkin – deyilgan bo'lsada, rad etish asoslangan bo'lishi yozma shaklda taqdim etilgan emas.

NIZOMining 58-bandida, “Inspeksiya qurilish obyektini ro'yxatdan o'tkazishni quyidagi asoslar bo'yicha rad etishga haqlidir:

ushbu NIZOMda nazarda tutilgan hujjatlar va materiallarni reglament buzilgan holda yoki to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etish; taqdim etilgan hujjatlar va materiallarni ko'rib chiqish davomida aniqlangan qonunchilik normalari buzilishlarining mavjudligi.

Rad etish asoslangan bo'lishi yozma shaklda taqdim etilishi kerak” – deyilgan.

Biroq, nizoli qarorda, Inspeksiya qurilish obyektini ro'yxatdan o'tkazishni quyidagi asoslar bo'yicha rad etishga haqlidir: ushbu Nizomda nazarda tutilgan hujjatlar va materiallarni reglament buzilgan holda yoki to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etish; taqdim etilgan hujjatlar va materiallarni ko'rib chiqish davomida aniqlangan qonunchilik normalari buzilishlarining mavjud – bo'lsada, rad etish asoslangan bo'lishi yozma shaklda taqdim etilgan emas.

NIZOMning 59-bandida, “Ro'yxatdan o'tkazilgan obyektlarda inspeksiya tomonidan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishning barcha bosqichlarida shaharsozlik normalari va qodalariga rioya etilishi yuzasidan nazorat o'rnatiladi” – deyilgan.

Biroq, nizoli qarorda, esa, Inspeksiya qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish to'g'risida ma'lumot mavjud emas.

Oqibatda, nizoli qaror tufayli egallangan 0,30 ga yer uchaskasining 0,15 ga yyer maydonidan hozirgacha foydalanilgan emas, ya'ni bo'sh turibdi.

NIZOMning 73-bandida, “Yer uchastkalari berish, ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek ularni foydalanishga qabul qilish jarayonida paydo bo'ladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi” – deyilgan.

Xulosa va takliflar. Faoliyati vaqtincha to'xtatilgan korxonada faoliyatini tiklash uchun Davlat xizmatlari markaziga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) orqali tegishli ariza yuborishingiz kerak. Arizada faoliyatni tiklash sanasi ko'rsatiladi. Soliq organlariga tiklash to'g'risida xabar berilib, hisobot topshirish va soliq majburiyatlarini bajarish tizimi qayta faollashtiriladi. Agar korxonada “tugatish” bosqichida bo'lsa, bu jarayon ma'muriy tartibda amalga oshiriladi.

Xullas, «Qurbonoy Mushkent» X/Ksi o'z ish faoliyati tiklansa, ya'ni ezgu ishi yo'lga qo'yilsa, kambag'alikni qisqartirish borasida: dastlab “Quyosh-shamol-suv” energiyasidan foydalanish uskunalari ishlab chiqish sexi, so'ngira uni zavodga aylantirish uchun binolarni qurish, “Qayta tiklanuvchi energiyalardan foydalanish to'g'risidagi”, “Turizim to'g'risidagi” qonunlarni amaliyotga joriy qiladi, mahalliy lashtirish va sanoatni rivojlantirish dasturini amalga oshiradi va ko'plab suvsiz hududlarda kamida 40 gektargacha yyerda tomchilab sug'arib dehqonchilikni rivojlantirish hamda gidroponikani joriy etadi.

Hamda, «Qurbonoy Mushkent» X/K Samarqand-Ashxabad-Turkmanboshi M-37 yo'lining 105 kilometrining o'ng tomonidan Narpay tumani “Kasagoron” QFY «Tepa» mahallasi hududidagi 0,3 ga yerda: innovation maktab, texnikuv, universitet, mehmonxona va mehmon uylari, kutubxona, yoshlar markazlarini Quyosh va shamol energiyasi hamda suvning oquvchanligidan foydalanishga asoslanib, avtonom ravishda ekohududni uzluksiz ravishda elektr energiyasi va suv bilan ta'minlab, ko'plab suvsiz hududlarda kamida dastlab 0,30 ga, keyinchalik 40,0 gektar yyerlarda tomchilab sug'arib dehqonchilikni rivojlantirib, ekologik toza hudud barpo etib, dastlab, ularga zarur uskunalari ishlab chiqarish sexi, so'ngira uni zavodga aylantirib, ularga investisiya kiritib, ularni reklama qilgan bo'lar edi.

Sobiq hokim B.O.Yusupovni KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASH QONUNNING 19, 21, 27 – moddalariga asosan, javobgarlikka tortilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan thtiyojlar uchun yer uchastkalari berish, shuningdek ob'ektlarni qurishga ruxsatnomalar berish tartibini tubdan soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining QARORI (Hujjat 01.07.2018 yilda kuchini yo'qotgan).
2. Fan va texnika davlat komiteti Davlat patent idorasi EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofazalash Agentligi EHM uchun dasturni ro'yxatdan o'tkazilganligi haqida № DGU 00309 GUVOHNOMA. EHM uchun dastur nomi: «UZ KN 1.PAS» dasturi. Huquq tgas (egalari): Karimov Rasul Isxokovich, Nurmatov Abdinazar Sadinovich. Mamlakat: O'zbekiston Respublikasi. Muallif (mualliflar): Karimov Rasul Isxokovich, Nurmatov Abdinazar Sadinovich. Talabnoma № DGU 20000015. EHM uchun dastur Davlat reestri ro'yxatdan 2000 yil 09.03 da o'tkazilgan.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasining 2, 7, 11, 13, 14-16, 19-21, 41-43, 49, 52, 53-57, 59-63, 65-68, 93, 95, 109, 115, 120-127, 130, 132, 133, 137, 138, 143 – moddalari.
4. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1, 6-9, 12, 81, 97, 106, 234, 235, 434-436, 656, 665, 684, 693, 696-702, 817-847, 862-874, 985, 989, 990, 1000, 1005, 1007, 1012, 1013, 1018, 1021, 1022, 1028, 1031-1034, 1033-1035, 1037-1043, 1051, 1056, 1062, 1065, 1068, 1073, 1088 – moddalari.
5. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuning 1-5, 15-18, 21-24, 25-28, 32, 33, 36-38 – moddalari.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. www.ziyouz.com kutubxonasi”.
7. Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuning 1, 3-10, 21, 25, 29 – moddalari.
8. O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 1-4, 6, 8-10, 12-18, 23, 26, 31-34, 39-42, 59, 61, 68, 78, 82-86, 89-90 – moddalari.
9. Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuning 1-7, 9, 14-17, 19-22, 25-29, 32, 33 – moddalari.